



#10 KUZ | ОСЕНЬ | AUTUMN | 25

QANOT SHARQ

Airlines

YO'LOVCHILAR UCHUN JURNAL | ЖУРНАЛ ДЛЯ АВИАПАССАЖИРОВ | MAGAZINE FOR AIR PASSENGERS



ENG Professions Out of Sight,
but at the Center of Events

E'tibordan chetda, ammo VOQEALAR MARKAZIDA bo'lgan kasblar

RUS Профессии вне поля зрения,
но в центре событий

WWW.QANOTSHARQ.COM

MUNDARIJA

Содержание | Content

6 →

UZB Qanot Sharq yangiliklari

RUS Новости Qanot Sharq

ENG Qanot Sharq news

14

UZB Organizmingiz uchun qulay sayohat

RUS Комфортное путешествие для вашего организма

ENG Comfortable Travel for Your Body



16 ↑

UZB Istanbul ta'tillari: Kontrastlar shahri bo'ylab yo'lboshlovchi qo'llanma

RUS Стамбульские каникулы: Гид по городу контрастов

ENG Istanbul Summer Getaway: A Seasonal Guide to the City of Contrasts

20 ↑

UZB Urung'och ko'li: O'zbekistonning nefrit durdonasi

RUS Озеро Урунгах: Невритовая жемчужина Узбекистана

ENG Lake Urungach: Uzbekistan's Jade Pearl



28 ↑

UZB Praga kuz faslida: Tashrif buyurishga arziydigan 10 ta joy

RUS Прага осенью: 10 мест, которые стоит увидеть

ENG Prague in Autumn: 10 Places You Must See



34 ↑

UZB Peterburgdagi «Oq tunlar»

RUS «Белые ночи» в Петербурге

ENG "White Nights" in Saint Petersburg



Над выпуском работали

Главный редактор:

Хусанова Зарина

Переводчик на узбекский язык:

Дилором Ниязова

Переводчик на английский язык:

Тимур Перков

Дизайнер:

Амон Осканов

Фотограф:

Мухаммад Фирдавс Бойдадаев



Перепечатка и любое воспроизведение материалов и иллюстраций журнала Qanot Sharq возможны только с письменного разрешения.

Рекламуемый товар имеет необходимые лицензии и сертификаты.

Журнал ежеквартальный, зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан. Разрешение № 057531

Адрес редакции: г. Ташкент, Шайхантахурский район, ул. Караташ, 23.

По вопросам размещения рекламы обращаться:
e-mail: press@qanotsharq.com, ads@qanotsharq.com
Сайт: qanotsharq.com



Отпечатано в типографии: ООО «PRINTUZ», город Ташкент, Мирабадский район, улица Кушкуприк, дом 28/1.
Печать офсетная, Тираж: 1500 экз.
Номер заказа: №0000

MUNDARIJA

Содержание | Content


40 ↓

- UZB Pekin va Buyuk Xitoy devori
- RUS Пекин и Великая Китайская стена
- ENG Beijing and The Great Wall of China




52 →

- UZB Parvoz psixologiyasi: uchish qo'rquvini qanday yengish mumkin
- RUS Психология полёта: как побороть страх летать
- ENG The Psychology of Flight: How to Overcome the Fear of Flying



44 ↓

- UZB Oltin kuz sahnalari: albatta ko'rish kerak bo'lgan konsert va spektakllar
- RUS Золотая осень сцены: концерты и спектакли, которые стоит увидеть
- ENG Golden Autumn on Stage: Concerts & Performances You Shouldn't Miss



54 ←

- UZB E'tibordan chetda, ammo voqealar markazida bo'lgan kasblar
- RUS Профессии вне поля зрения, но в центре событий
- ENG Professions Out of Sight, but at the Center of Events

66 →

- UZB Aviatsiya spotteri Woojin Lim bilan suhbat
- RUS Интервью с авиационным споттером Woojin Lim
- ENG An Interview with Aviation Spotter Woojin Lim

70 ↓

- UZB Kappadokiya: Turkiya yuragi sari sayohat
- RUS Каппадокия: Путешествие в сердце Турции
- ENG Cappadocia: A Journey to the Heart of Turkey



MAGIC SAFARI



78 ↑

- UZB O'zbekistondagi kuz fasli: Sharq yanada go'zallashgan payt
- RUS Осень в Узбекистане: время, когда восток особенно красив
- ENG Autumn in Uzbekistan: a Time When the East is Especially Beautiful



76 ↑

- UZB Butun oila uchun sarguzasht
- RUS Приключение для всей семьи
- ENG An Adventure for the Whole Family

86 ↓

- UZB Parvozlarning xavfsizligi himoyasida: tajriba, intizom, yetakchilik
- RUS На страже безопасности полётов: опыт, дисциплина, лидерство
- ENG Guarding Flight Safety: Experience, Discipline, Leadership




Baliga to'g'ridan-to'g'ri reys: Toshkentdan tarixiy parvoz

RUS **Прямой рейс на Бали:**
исторический полёт из Ташкента

ENG **Direct Flight to Bali:**
a Historic Journey from Tashkent



25-iyuldan boshlab Asia-luxe Travel turoperator bilan hamkorlikda Toshkentdan Bali oroliga (Indoneziya) tarixda ilk bor to'g'ridan-to'g'ri charter reysi amalga oshirildi.



С 25 июля, совместно с туроператором Asialuxe Travel, был осуществлён первый в истории прямой чартерный рейс из Ташкента на остров Бали (Индонезия).

Starting from July 25, in co-operation with tour operator Asialuxe Travel, the first-ever direct charter flight from Tashkent to the island of Bali (Indonesia) was successfully launched.

UZB

Endi, mo'jizaviy orolga sayohat qilish uchun ko'p vaqt oladigan reys almashishlar va murakkab yo'nalishlar talab qilinmaydi. Zamonaviy, keng va ishonchli Airbus A330 yo'lovchilarni Toshkentdan Indoneziya markaziga atigi 9,5 soatlik qulay parvozda eltib qo'yadi.

Mazkur yo'nalish o'zbekistonlik sayyohlar uchun yangi ufqlarni ochib beradi. Bali — bu nafaqat kurort, bu kuch-quvvat, ilhom va hordiq olish maskani bo'lib, u yerda har kim o'ziga yoqqani ni topa oladi: xilvat sohillar va yorqin quyosh botishlaridan tortib go'zal ibodatxonalar hamda noyob Bali madaniyatigacha.

Bali oroliga to'g'ridan to'g'ri reys — bu:
O'ng'aylik: reys almashishlar va tranzit zonalarda kutishlarsiz.
Qulaylik: zamonaviy salon va ajo'yib xizmat ko'rsatishga ega keng fyuzelyajli Airbus A330 samolyoti.
Tezkorlik: atigi 9,5 soat va siz orzular orolida bo'lasiz.

Biz mamlakatimiz turizm tarixidagi ushbu yangi sahifaning bir qismi bo'lganimizdan benihoya mamnunmiz va barchani unutilmas sayohatga taklif etamiz.

RUS

Теперь путешествие на сказочный остров больше не требует длительных пересадок и сложных маршрутов. Современный, просторный и надежный Airbus A330 доставляет пассажиров из Ташкента в сердце Индонезии всего за 9,5 часов комфортного полета.

Этот маршрут открывает новые горизонты для путешественников из Узбекистана. Бали — это не просто курорт, это место силы, вдохновения и отдыха, где каждый найдет что-то для себя: от уединённых пляжей и ярких закатов до живописных храмов и уникальной балийской культуры.

Прямой рейс на Бали — это:
Удобство: никаких пересадок и ожидания в транзитных зонах.
Комфорт: широкофюзеляжный Airbus A330 с современным салоном и отличным сервисом.
Скорость: всего 9,5 часов и вы уже на острове мечты.

Мы рады быть частью этой новой главы в туристической истории страны и приглашаем всех присоединиться к незабываемому путешествию.

ENG

Now, traveling to this magical island no longer requires long layovers and complicated routes. The modern, spacious, and reliable Airbus A330 transports passengers from Tashkent to the heart of Indonesia in just 9.5 hours of comfortable flight.

This new route opens up exciting opportunities for travelers from Uzbekistan. Bali is not just a resort — it's a place of energy, inspiration, and relaxation, where everyone can find something special: from secluded beaches and vibrant sunsets to picturesque temples and the unique Balinese culture.

A direct flight to Bali means:
Convenience: No layovers or long waits in transit zones.
Comfort: A wide-body Airbus A330 with a modern cabin and excellent onboard service.
Speed: Just 9.5 hours — and you're already on the island of your dreams.

We are proud to be part of this new chapter in the country's travel history and invite everyone to join us on an unforgettable journey.





UZB

Toshkentdan Rossiyaning madaniy poytaxti — Sankt-peterburgga to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozlar

22-iyundan boshlab Toshkentdan Rossiyaning eng go‘zal va madaniy jihatdan ahamiyatli shaharlaridan biri bo‘lgan Sankt-Peterburgga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muntazam reyslar yo‘lga qo‘yilgani haqida bajonidil xabar beramiz.

Endi Rossiyaning shimoliy poytaxti sari yo‘l yanada qulay va tezroq bo‘ldi: almashishlarsiz, qulaylik bilan va muntazam tarzda. Toshkent va Sankt-Peterburg o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo yo‘llari sayohatlar, tijorat safarlari va madaniy almashinuv uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Sankt-Peterburg — bu, birinchi qarashdanoq ilhomlantiruvchi shahardir. Saroylar, muzeylar, teatrlar, kanallar va qirg‘oq bo‘ylari — har bir go‘sha tarix va san‘at bilan yo‘g‘rilgan. Ermitaj, Petropavlovsk qal‘asi, Nevskiy shox ko‘chasi, oq tunlar va Neva bo‘yidagi shaharning betakror muhiti o‘z mehmonlarini kutmoqda.

Mazkur yo‘nalish nafaqat O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi, balki sayohatlarni yanada qulayroq va yoqimliroq qiladi.

RUS

Прямые рейсы в Санкт-Петербург — из Ташкента в культурную столицу России

С радостью сообщаем, что с 22 июня открыты прямые регулярные рейсы из Ташкента в Санкт-Петербург — один из самых красивых и культурно значимых городов России.

Теперь дорога в северную столицу России стала еще удобнее и быстрее: без пересадок, с комфортом и на регулярной основе. Прямое авиасообщение между Ташкентом и Санкт-Петербургом открывает новые возможности для путешествий, деловых поездок и культурного обмена.

Санкт-Петербург — это город, который вдохновляет с первого взгляда. Дворцы, музеи, театры, каналы и набережные — каждый уголок дышит историей и искусством. Эрмитаж, Петропавловская крепость, Nevskiy prospekt, белые ночи и неповторимая атмосфера города на Неве ждут своих гостей.

Этот маршрут не только укрепляет связи между Узбекистаном и Россией, но и делает путешествия еще доступнее и приятнее.

ENG

Direct Flights to Saint Petersburg — From Tashkent to the Cultural Capital of Russia

We are pleased to announce that starting June 22, direct regular flights from Tashkent to Saint Petersburg — one of the most beautiful and culturally significant cities in Russia — have been launched.

Now the journey to Russia’s northern capital has become even more convenient and faster: no layovers, with comfort, and on a regular basis. Direct air service between Tashkent and Saint Petersburg opens new opportunities for travel, business trips, and cultural exchange.

Saint Petersburg is a city that inspires at first sight. Palaces, museums, theaters, canals, and embankments — every corner breathes history and art. The Hermitage, Peter and Paul Fortress, Nevsky Prospect, white nights, and the unique atmosphere of the city on the Neva River are waiting to welcome their guests.

This route not only strengthens ties between Uzbekistan and Russia but also makes traveling more accessible and enjoyable.

UZB

Termiz — Moskva: 9-iyuldan yangi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘nalish

9-iyuldan boshlab aviakompaniyamiz Termiz — Moskva yo‘nalishi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri muntazam parvozlarni yo‘lga qo‘ydi, shu tariqa, parvozlarni geografiasini sezilarli darajada kengaytirdi hamda O‘zbekiston janubi va Rossiya Federatsiyasi poytaxti o‘rtasidagi transport aloqalarini mustahkamladi.

Yangi yo‘nalishning ishga tushirilishi yo‘lovchilarning tobora ortib borayotgan talabiga javob va mintaqaviy aviatsiyani rivojlantirishdagi muhim qadamdir. Endi Termiz shahri va Surxondaryo viloyati aholisiga parvozlarni almashtirishga yoki yo‘lda ortiqcha vaqt sarflashiga hojat yo‘q: to‘g‘ridan-to‘g‘ri reys Yevropaning eng yirik megapolislaridan biri, Rossiyaning ishbilarmonlik va madaniy markazi bo‘lmish Moskvaga tez va qulay yetib olish imkonini taqdim etadi.

Termiz — Moskva reysi sayohatchilar uchun ham, oilaviy yoki kasbiy sabablarga ko‘ra muntazam ravishda parvoz qilib turadigan yo‘lovchilar uchun ham talabgir va qulay yechim bo‘ladi deb umid qilamiz.

Bizning maqsadimiz — shaharlarni bir-biriga yaqinroq qilish.

RUS

Термез — Москва: новый прямой маршрут с 9 июля

С 9 июля наша авиакомпания открыла прямые регулярные рейсы по маршруту Термез — Москва, тем самым значительно расширив географию полётов и укрепив транспортные связи между югом Узбекистана и столицей Российской Федерации.

Запуск нового направления — это ответ на растущий спрос со стороны пассажиров и важный шаг в развитии региональной авиации. Теперь жителям Термеза и Сурхандарьинской области не нужно совершать пересадки или тратить лишнее время в пути: прямой рейс позволяет быстро и комфортно добраться до Москвы — одного из крупнейших мегаполисов Европы, делового и культурного центра России.

Мы уверены, что рейс Термез — Москва станет востребованным и удобным решением как для путешественников, так и для тех, кто регулярно летает по семейным или профессиональным причинам.

Наша цель — делать города ближе.

ENG

Termez — Moscow: New Direct Route Starting July 9

Starting July 9, our airline launched direct regular flights on the Termez — Moscow route, significantly expanding our flight network and strengthening transport connections between southern Uzbekistan and the capital of the Russian Federation.

The launch of this new route is a response to growing passenger demand and an important step in the development of regional aviation. Now residents of Termez and the Surkhandarya region no longer need to make transfers or spend extra time traveling: the direct flight allows for a fast and comfortable journey to Moscow — one of Europe’s largest metropolises and Russia’s business and cultural center.

We are confident that the Termez — Moscow flight will become a popular and convenient option for both travelers and those who regularly fly for family or professional reasons.

Our goal is to bring cities closer together.



Toshkent — Shanxay: O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi yangi ko'prik



RUS Ташкент – Шанхай:
новый мост между Узбекистаном и Китаем

ENG Tashkent – Shanghai:
a New Bridge Between Uzbekistan and China



4-iyuldan boshlab bizning aviakompaniyamiz Toshkentdan Xitoyning eng yirik megapolisi, Osiyoning moliyaviy, madaniy va texnologik markazi — Shanxayga to'g'ridan-to'g'ri reyslarni yo'lga qo'ydi.

UZB

Yo'nalishning ochilishi bayramona ruhda o'tdi: Toshkent aeroportida mehmonlar va yo'lovchilarni ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy birlik va do'stlikni ifodalovchi yorqin milliy xitoy raqslari kutib oldi, ular asta-sekin o'zbek folkloriga ko'chdi. Aviakompaniya bosh direktori tabrik so'zi bilan so'zga chiqib, ushbu yo'nalish xalqaro hamkorlik, turizm va ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhimligini ta'kidladi.

Shanxayga parvoz yo'lovchilar uchun ham chinakam voqeaga aylandi: borda ularni esdalik sovg'alari — birinchi reys uchun maxsus tayyorlangan brend otkritkalari va shokoladlar kutardi.

Shanxay Pudun aeroportida samolyotimizni an'anaviy aviatsiya ehtiromi va birinchi parvozni nishonlash belgisi — suv arkasi bilan tantanali kutib oldilar.

Shanxayga to'g'ridan-to'g'ri reysning ochilishi — bu nafaqat parvozlarni geografiasini kengaytirish, balki O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi havo ko'prigini rivojlantirishda ham muhim qadam bo'ldi.

С 4 июля наша авиакомпания открыла прямые рейсы из Ташкента в Шанхай — крупнейший мегаполис Китая, финансовый, культурный и технологический центр Азии.

RUS

Открытие маршрута прошло в праздничной атмосфере: в аэропорту Ташкента гостей и пассажиров ждали яркие национальные китайские танцы плавно перешли в узбекский фольклор, символизируя культурное единство и дружбу между двумя странами. С приветственным словом выступил генеральный директор авиакомпании, подчеркнув важность этого направления для развития международного сотрудничества, туризма и деловых связей.

Рейс в Шанхай стал настоящим событием и для пассажиров: на борту их ждали памятные подарки — фирменные открытки и шоколад, подготовленные специально к первому рейсу.

В аэропорту Шанхай Пудун наш самолёт торжественно встретили водной аркой — традиционным авиационным знаком уважения и празднования первого прибытия.

Открытие прямого рейса в Шанхай — это не только расширение географии полетов, но и важный шаг в развитии воздушного моста между Узбекистаном и Китаем.



Starting July 4, our airline launched direct flights from Tashkent to Shanghai — China's largest metropolis and the financial, cultural, and technological hub of Asia.

ENG

The route's opening was celebrated with a festive atmosphere: at Tashkent airport, guests and passengers were treated to vibrant traditional Chinese dances that smoothly transitioned into Uzbek folk performances, symbolizing the cultural unity and friendship between the two countries. The airline's CEO delivered a welcoming speech, emphasizing the importance of this route for developing international cooperation, tourism, and business ties.

The flight to Shanghai was a special event for passengers as well: on board, they received commemorative gifts — branded postcards and chocolates prepared especially for the inaugural flight.

At Shanghai Pudong Airport, our plane was ceremoniously greeted with a water salute — a traditional aviation gesture of respect and celebration for a first arrival.

The launch of direct flights to Shanghai is not only an expansion of our flight network but also an important step in strengthening the air bridge between Uzbekistan and China.



Pekinga to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar: yangi yo‘nalishning ochilishi



RUS

Прямые рейсы в Пекин:
открытие нового маршрута

ENG

Direct Flights to Beijing:
Opening of a New Route

6-iyuldan boshlab aviakompaniyamiz Toshkentdan Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti — ming yillik tarixga va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega dunyodagi eng yirik megapolislardan biri bo‘lgan Pekin shahriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muntazam reyslarni ochdi.

С 6 июля наша авиакомпания с гордостью открыла прямые регулярные рейсы из Ташкента в Пекин — столицу Китайской Народной Республики, один из крупнейших мегаполисов мира с тысячелетней историей и динамично развивающейся экономикой.

Starting July 6, our airline proudly launched direct regular flights from Tashkent to Beijing — the capital of the People’s Republic of China, one of the world’s largest metropolises with a millennia-old history and a rapidly developing economy.



UZB

Toshkent xalqaro aeroportida ikki mamlakatning madaniy anʼanalarini oʻzaro birlashtirgan tantanali tadbir boʻlib oʻtdi. Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi oʻzaro hurmat va koʻp yillik doʻstlik ramzi boʻlgan milliy xitoy raqslari oʻzbek xalq chiqishlariga uygʻunlashib, bayramona muhit yaratdi. Aviakompaniya bosh direktori tabrik soʻzga chiqib, ikki poytaxt oʻrtasidagi havo aloqalarini mustahkamlash muhimligini taʼkidladi.

Birinchi reys yoʻlovchilariga parvoz qulayligiga yoqimli qoʻshimcha tariqasida maxsus otkritkalar va shokoladlar taqdim etildi.

Pekin shahrining zamonaviy Dasin xalqaro aeroportiga qoʻngan samolyot yangi yoʻnalish ochilishi hamda samimiy kutib olish ramzi — tantanali suv arkasi bilan kutib olindi.

Toshkent va Pekin oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri reyslarning ochilishi — bu parvozlarni geografiasini kengaytirish, tijorat va turizm aloqalarini rivojlantirish, shuningdek, Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash yoʻlidagi yana bir qadamdir.



WWW.QANOTSHARQ.COM

RUS

Открытие маршрута ознаменовалось торжественной церемонией в международном аэропорту Ташкента, объединившей культурные традиции двух стран. Праздничную атмосферу создавали национальные китайские танцы, плавно переходящие в узбекские народные выступления, символизируя взаимное уважение и многолетнюю дружбу между Узбекистаном и Китаем. С приветственным словом выступил генеральный директор авиакомпании, подчеркнув важность укрепления воздушного сообщения между двумя столицами.

Пассажирам первого рейса были вручены фирменные открытки и шоколад, ставшие приятным дополнением к комфорту полета.

По прибытии в современный международный аэропорт Пекина Дасин самолёт был встречен торжественной водной аркой — авиационной традицией, символизирующей открытие нового маршрута и радушный приём.

Открытие прямых рейсов между Ташкентом и Пекином — это ещё один шаг к расширению географии полетов, развитию деловых и туристических связей, а также укреплению стратегического партнёрства между Узбекистаном и Китаем.

ENG

The route’s opening was marked by a ceremonial event at Tashkent International Airport, which combined the cultural traditions of both countries. The festive atmosphere featured traditional Chinese dances smoothly transitioning into Uzbek folk performances, symbolizing mutual respect and long-standing friendship between Uzbekistan and China. The airline’s CEO delivered a welcoming speech emphasizing the importance of strengthening air connectivity between the two capitals.

Passengers on the inaugural flight were presented with branded postcards and chocolates, a pleasant addition to their flight comfort.

Upon arrival at Beijing Daxing International Airport, the plane was greeted with a ceremonial water salute — an aviation tradition symbolizing the opening of a new route and a warm welcome.

The launch of direct flights between Tashkent and Beijing is another step toward expanding our flight network, developing business and tourism ties, and strengthening the strategic partnership between Uzbekistan and China.



Organizmingiz uchun qulay sayohat

Parvozdan oldin nima iste'mol qilish va nima ichish kerak

RUS Комфортное путешествие для вашего организма
Что есть и пить до перелета

Aviaparvoz — bu doimo organizm uchun sinovdir. Havo bosimini o'zgarishi, quruq havo, harakatni cheklash va odatdagi ovqatlanish tartibining buzilishi salomatligingizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Parvoz imkon qadar qulay o'tishi uchun parvozdan oldin to'g'ri ovqatlanish va ichimliklarni tanlash orqali o'z organizmni to'g'ri tayyorlash juda muhimdir.

Авиаперелет – это всегда испытание для организма. Смена давления, сухой воздух, ограничение движения и нарушение привычного режима питания могут негативно сказаться на вашем самочувствии. Чтобы полет прошел максимально комфортно, важно правильно подготовить свой организм, выбрав подходящую еду и напитки до перелета.

UZB

Parvozdan oldin

Namlanish — eng avvalo! Samolyot salonidagi quruq havo organizmning suvsizlanishiga olib keladi. Shuning uchun parvozdan bir necha kun oldin ko'proq suv, giyohli choy yoki kokos suvi ichishni boshlang. Alkogol va ko-feindan saqlaning, chunki ular peshob haydovchi ta'sirga ega.

Yengil va ozuqaga boy yeguliklar.

Parvozdan 24 soat oldin yengil va oson hazm bo'ladigan taomlarni afzal ko'ring. Mevalar, sabzavotlar, salatlar, suvda pishirilgan bo'tqalar yoki yog'siz yogurt ayni muddao bo'ladi. Oshqozonda noqulaylik tug'dirishi mumkin

RUS

Перед полетом

Увлажнение – прежде всего! Сухой воздух в салоне самолета способствует обезвоживанию организма. Поэтому, за несколько дней до полета начните пить больше воды, травяного чая или кокосовой воды. Избегайте алкоголя и кофеина, так как они обладают мочегонным эффектом.

Легкая и питательная пища. За 24 часа до вылета отдайте предпочтение легкой и легкоусвояемой пище. Идеально подойдут фрукты, овощи, салаты, каши на воде или нежирный йогурт. Избегайте жирной, жареной

ENG Comfortable Travel for Your Body
What to Eat and Drink Before a Flight

Air travel is always a challenge for the body. Changes in pressure, dry air, limited movement, and disruptions to your usual eating routine can negatively affect how you feel. To make your flight as comfortable as possible, it's important to prepare your body properly by choosing the right food and drinks before flying.

ENG

Before the flight

Hydration – above all! The dry air in the airplane cabin promotes dehydration. Therefore, start drinking more water, herbal tea, or coconut water several days before your flight. Avoid alcohol and caffeine, as they have a diuretic effect.

Light and nutritious food.

In the 24 hours before departure, prefer light and easily digestible foods. Fruits, vegetables, salads, porridges cooked in water, or low-fat yogurt are ideal. Avoid fatty,



UZB

bo'lgan yog'li, qovurilgan va achchiq taomlardan saqlaning.

Quvvat uchun oqsil. Taomnomangizga biroz oqsil qo'shing, masalan, qaynatilgan tovuq to'shi, bug'da pishirilgan baliq yoki tofu. Oqsil parvoz paytida ochlik hissidan qochish va quvvatni saqlashga yordam beradi.

Gaz hosil qiluvchi mahsulotlardan saqlaning. Parvozdan oldin qorin shishishiga olib keluvchi mahsulotlar, masalan, dukkaklilar, karam, gazlangan ichimliklar va saqichni taomnomangizdan chiqarib tashlagan ma'qul. Samolyot salonidagi bosimning o'zgarishi noqulaylik hissini kuchaytirishi mumkin.

Oxirgi ovqatlanish. So'nggi to'laqonli ovqatlanish parvozdan kamida 2-3 soat oldin bo'lishi kerak. Agar siz aeroportda ovqatlanishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, salat, sho'rva yoki yaxlitdonli nonli sendvich kabi yengil va sog'lom variantlarni tanlang.

Parvozdan oldin to'g'ri ovqatlanish va ichimlik ichish tartibi butun sayohat davomida o'zingizni qulay va tetik his qilishingizga yordam beradi. Qanot Sharq bilan sizga yoqimli va xavfsiz parvoz tilaymiz!

RUS

и острой пищи, которая может вызвать дискомфорт в желудке.

Белок для энергии. Добавьте в свой рацион немного белка, например, отварную куриную грудку, рыбу на пару или тофу. Белок поможет поддерживать энергию и избежать чувства голода во время полета.

Избегайте газообразующих продуктов. Перед полетом лучше исключить из рациона продукты, вызывающие вздутие живота, такие как бобовые, капуста, газированные напитки и жевательная резинка. Изменение давления в салоне самолета может усилить дискомфорт.

Последний прием пищи. Последний полноценный прием пищи должен быть не позднее, чем за 2-3 часа до вылета. Если вы планируете поесть в аэропорту, выбирайте легкие и здоровые варианты, такие как салат, суп или сэндвич с цельнозерновым хлебом.

Правильное питание и питьевой режим до перелета помогут вам чувствовать себя комфортно и энергично на протяжении всего путешествия. Желаем вам приятного и безопасного полета с Qanot Sharq!

ENG

fried, and spicy foods that may cause stomach discomfort.

Protein for energy. Add some protein to your diet, such as boiled chicken breast, steamed fish, or tofu. Protein helps maintain energy and prevents hunger during the flight.

Avoid gas-producing foods. It's better to exclude foods that cause bloating before the flight, such as legumes, cabbage, carbonated drinks, and chewing gum. Changes in cabin pressure can increase discomfort.

Last meal. Your last full meal should be at least 2-3 hours before departure. If you plan to eat at the airport, choose light and healthy options like salad, soup, or a whole-grain sandwich.

Proper nutrition and hydration before your flight will help you feel comfortable and energetic throughout your journey. We wish you a pleasant and safe flight with Qanot Sharq!

Istanbul ta'tillari

Kontrastlar shahri bo'ylab yo'lboshlovchi qo'llanma

RUS Стамбульские каникулы
Гид по городу контрастов

ENG Istanbul Summer Getaway
A Seasonal Guide to the City of Contrasts



Istanbul — bu hayot, ranglar va unutilmas taassurotlarga to'la shahardir. Biz siz uchun Istanbulda tashrif chog'ida diqqatga sazovor eng qiziqarli joylar va ko'ngilochar tadbirlar bo'yicha qo'llanma tayyorladik.

Стамбул – это город, полный жизни, красок и незабываемых впечатлений. Мы подготовили для вас гид по самым интересным местам и развлечениям, которые стоит посетить в Стамбуле.

Istanbul is bursting with life, color, and unforgettable experiences. We've put together a guide to the city's most captivating spots and activities to make the most of your stay.



UZB

Shahzodalar orollari bo'ylab sayohat: jaziramadan panoh izlab Marmar dengizi tomon qochish

Istanbul jazirasidan charchadingizmi? Shahzodalar oroliga tomon yo'loing! Ushbu arxipelag shahar shovqinidan qochib, dengizning salqin shabadasidan bahramand bo'lish uchun ajoyib joydir. Orollarga ish kunlari borishni tavsiya qilamiz, chunki dam olish kunlari ular mahalliy aholi va sayyohlar bilan to'la bo'ladi. Orollarda siz Marmar dengizining toza suvlarida dam olish va cho'milish mumkin bo'lgan kichik, shinam plyajlarni (garchi qumsiz bo'lsa ham) topasiz. Xushmanzarali ko'chalarda, faytonda sayr qilishni va mahalliy restoranlardan birida yangi dengiz mahsulotlarini tatib ko'rishni ham unutmang.

RUS

Тур по Принцевым островам: Побег от жары в Мраморное море

Устали от стамбульской жары? Отправляйтесь на Принцевы острова! Этот архипелаг – отличное место, чтобы сбежать от городской суеты и насладиться прохладным морским бризом. Рекомендуем посетить острова в будние дни, так как в выходные они переполнены местными жителями и туристами. На островах вы найдете небольшие, уютные пляжи (хотя и без песка), где можно расслабиться и искупаться в чистых водах Мраморного моря. Не забудьте прогуляться по живописным улочкам, прокатиться на фаэтоне и отведать свежие морепродукты в одном из местных ресторанчиков.

ENG

Princes' Islands Tour: Escape the Heat in the Marmara Sea

Need a break from Istanbul's summer heat? Set sail for the Princes' Islands! This archipelago offers a peaceful retreat from the city's hustle, with refreshing sea breezes and a charming island atmosphere. For a quieter experience, visit on weekdays, as weekends tend to draw large crowds of locals and tourists. While the islands' beaches may be pebbled rather than sandy, their serene waters are perfect for swimming. Don't miss a scenic ride in a horse-drawn carriage and a seafood lunch at a quaint local restaurant.

UZB

Bosfor yaqinidagi Baliq raki: Turk uslubidagi ta'm

Istanbulda an'anaviy "raki baliq" — Bosfor qirg'og'ida qisqichbaqa va yangi baliq bilan kechki taomni tatib ko'rmay tasavvur qilib bo'lmaydi. Baliq ovlash mavsumi kuzda boshlanadi, ammo yozda ham baliqdan tayyorlangan eng mazali taomlardan bahramand bo'lish mumkin. Raki — turk milliy ichimligi, pastis yoki uzoni eslatuvchi anis arog'i. Rivoyatlarga ko'ra, hatto Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafa Kamol Otaturk ham raki'ning ashaddiy muxlisi bo'lgan va bu ichimlik ichib, maslahatchilar bilan davlatning muhim masalalarini muhokama qilgan. "Raki baliq" — bu nafaqat taom emas, balki do'stlar va yaqinlarni samimiy suhbat va mazali taomlar tavovvul qilib dasturxon atrofida o'zaro birlashtiradigan butun bir madaniyatdir.

Istanbul jaz festivali: Yulduzlar ostidagi ohanglar

Agar siz musiqani yaxshi ko'rsangiz, iyul oyida uch hafta davomida o'tkaziladigan Istanbul xalqaro jaz festivaliga albatta tashrif buyurishingiz kerak. Festivalda jahonning eng sara jaz, soul va blyuz ijrochilari chiqish qiladi, konsertlar esa shaharning turli joylarida — tarixiy binolardan tortib zamonaviy konsert zallarigacha bo'lib o'tadi. Asosiy konsertlardan tashqari, festival tungi jazz kechalari, Bosfor bo'ylab jazz sayohatlari va parkda bepul jazz konsertlari kabi ko'plab qiziqarli tadbirlarni taklif etadi.

RUS

Раки Балык возле Босфора: Вкус на турецкий манер

В Стамбуле невозможно представить без традиционного «раки балык» — ужина с раки и свежей рыбой на берегу Босфора. Рыболовный сезон начинается осенью, но и летом можно насладиться вкуснейшими блюдами из рыбы. Раки — это турецкий национальный напиток, анисовая водка, похожая на пастис или узо. По легенде, даже Мустафа Кемаль Ататюрк, основатель Турецкой Республики, был большим поклонником раки и часто обсуждал важные государственные вопросы с советниками за бокалом этого напитка. «Раки балык» — это не просто еда, это целая культура, объединяющая друзей и близких за приятной беседой и вкусным угощением.

Стамбульский джазовый фестиваль: Ритмы под звездами

Если вы любите музыку, то вам обязательно стоит посетить Стамбульский международный джазовый фестиваль, который проходит в течение трех недель в июле. На фестивале выступают лучшие мировые исполнители джаза, соула и блюза, а концерты проходят на различных площадках города — от исторических зданий до современных концертных залов. Помимо основных концертов, фестиваль предлагает множество других интересных мероприятий, таких как ночные джазовые вечеринки, джазовые круизы по Босфору и бесплатные джазовые концерты в парке.


ENG

Raki & Balık by the Bosphorus: A Taste of Turkish Style

Evenings in Istanbul are best spent enjoying raki balık — a traditional meal of raki (anise-flavored spirit) and fresh fish, served along the shores of the Bosphorus. While peak fishing season begins in autumn, summer still offers a variety of flavorful seafood dishes. Legend has it that Mustafa Kemal Atatürk, founder of the Turkish Republic, often discussed matters of state over a glass of raki. Today, raki balık represents more than a meal — it's a social ritual that brings friends and families together around food, conversation, and laughter.

Istanbul Jazz Festival: Summer Rhythms Under the Stars

Music lovers should not miss the Istanbul International Jazz Festival, held every July over a span of three weeks. The festival hosts leading global artists in jazz, soul, and blues, with performances set in some of the city's most iconic venues—from historic buildings to sleek modern halls. Beyond the headlining concerts, the festival features late-night jazz parties, Bosphorus jazz cruises, and free park performances, offering something for every taste.



UZB

Bosfor bo'ylab sayohat: Istanbulni suvdan kashf eting

Bosfor bo'ylab sayohat paytida Istanbulni yangi rakursdan tomosha qilish mumkin. 2-3 soat ichida siz shaharning eng mashhur diqqatga sazovor joylari: ulug'vor saroylar, qadimiy qal'alar, hashamatli villalar va go'zal bog'larning ajoyib manzaralaridan bahramand bo'lishingiz mumkin. Xususiy sayohat chog'ida siz quyoshli palubada yoki shinam salonda dam olishingiz, salqin ichimliklar va musaffo dengiz shabadasidan bahramand bo'lishingiz mumkin. Bosfor bo'ylab sayohat — bu unutilmas tajriba bo'lib, Istanbulni butun go'zalligini ko'rish imkonini beradi.

*Qanot Sharq sizga unutilmas
Istanbul ta'lini tilab
qoladi!*

RUS

Круиз по Босфору: Откройте для себя Стамбул с воды

Увидеть Стамбул с нового ракурса можно во время круиза по Босфору. За 2-3 часа вы сможете насладиться великолепными видами на самые известные достопримечательности города: величественные дворцы, старинные крепости, роскошные виллы и живописные парки. Во время частного круиза вы сможете отдохнуть на солнечной палубе или в уютном салоне, наслаждаясь прохладительными напитками и свежим морским бризом. Круиз по Босфору — это незабываемый опыт, который позволит вам увидеть Стамбул во всей его красе.

*Qanot Sharq желяет вам
незабываемых стамбульских
каникул!*

ENG

Bosphorus Cruise: Discover Istanbul from the Water

Experience Istanbul from a different perspective with a cruise along the Bosphorus. In just a few hours, you'll pass by some of the city's most iconic sights: majestic palaces, ancient fortresses, elegant waterfront mansions, and lush parks. A private cruise offers the perfect blend of relaxation and sightseeing — whether you're soaking up the sun on deck or enjoying a cool drink in a cozy cabin. It's a truly memorable way to witness Istanbul's beauty from the water.

*Qanot Sharq wishes you
an unforgettable summer
in Istanbul!*



Urung'och ko'li

O'zbekistonning nefrit durdonasi



RUS

Озеро Урунгат

Нефритовая жемчужина Узбекистана

ENG

Lake Urungach

Uzbekistan's Jade Pearl

UZB

Shovqin-suronli Toshkentdan uzoq-da, Ugam-Chotqol Milliy bog'ining ulug'vor tog'lari orasida g'ayritabiiy go'zallik makoni — Urung'och ko'li yashiringan. Dengiz sathidan 1227 metr balandlikda, poytaxtdan 160 kilo-metr uzoqlikda joylashgan ushbu ko'l betakror go'zalligi hamda orombaxsh havosi bilan o'ziga chorlaydi.

Ko'l o'z nomini uyg'urcha so'zlardan olgan: "urung" — yorug' yoki oq, "kash" — nefrit. "Urung'och"ni "och nefrit" deb tarjima qilish mumkin, bu uning ajoyib rangini ajoyib tarzda tasvirlaydi.

Urung'och ikki ko'ldan iborat: yuqorigi kichik, mayin feruza tusli va quyiroqdagi nisbatan kattaroq ko'l. Tarixchilarning fikricha, ko'l tabiiy to'g'onni hosil qilgan qoyaning qulashi natijasida paydo bo'lgan.

RUS

Вдали от шумного Ташкента, среди величественных гор Угам-Чаткальского Национального парка, скрывается место неземной красоты – озеро Урунгат. Расположенное на высоте 1227 метров над уровнем моря, в 160 километрах от столицы, это озеро манит своей неповторимой красотой и умиротворяющей атмосферой.

Свое название озеро получило от уйгурских слов: «урунг» – светлый или белый, и «каш» – нефрит. «Урунгат» можно перевести как «светлый нефрит», что как нельзя лучше описывает его удивительный цвет.

Урунгат состоит из двух озер: верхнего, небольшого, с нежным бирюзовым оттенком, и нижнего, более крупного. Историки считают, что озеро образовалось в результате обвала скалы, которая создала естественную плотину.

ENG

Far from the bustling city of Tashkent, nestled among the majestic mountains of the Ugam-Chatkal National Park, lies a place of otherworldly beauty—Lake Urungach. Located at an altitude of 1,227 meters above sea level and 160 kilometers from the capital, this lake captivates visitors with its unique charm and tranquil atmosphere.

The name "Urungach" comes from the Uyghur words «urung» meaning light or white, and «kash» meaning jade. Thus, «Urungach» can be translated as «light jade,» perfectly describing the lake's stunning color.

Urungach consists of two lakes: the upper lake, smaller in size with a delicate turquoise hue, and the lower lake, which is larger. Historians believe the lake was formed by a rockfall that created a natural dam.



UZB

Koʻlga tashrif buyurish uchun eng maqbul payt qachon?

Nefrit koʻllariga tashrif buyurish uchun eng qulay davr 15-maydan 25-iyungacha boʻlgan vaqt hisoblanadi, bu paytda koʻllar eng sersuv boʻladi. Bu davrdan soʻng quyi koʻl suvi asta-sekin oqib ketadi va kuz-qish oylariga kelib u butunlay qurib qolishi mumkin. Yuqori Urungʻochda suv yil boʻyi saqlanib turadi, ammo aynan bahor fasli oylari ikkala koʻlni ham butun goʻzalligida koʻrish imkonini beradi.

RUS

Когда лучше всего посетить озеро?

Самым благоприятным периодом для посещения Невритовых озер считается время с 15 мая по 25 июня, когда озера наиболее полноводны. После этого периода вода из нижнего озера постепенно уходит, и к осени-зиме оно может полностью пересохнуть. В верхнем Урунгаче вода остается круглый год, но именно весенние месяцы позволяют застать оба озера во всей своей красе.

ENG

When is the best time to visit the lake?

The ideal time to visit the Jade Lakes is between May 15 and June 25, when the lakes are at their fullest. After this period, water from the lower lake gradually recedes, and by autumn or winter, it may dry up completely. The upper Urungach retains water year-round, but the spring months are the best time to witness both lakes in all their glory.



UZB

Koʻlga qanday yetib borsa boʻladi?

Urungʻochga avtomobilda yetib borish mumkin. Toshkentdan 3-4 soatlik yoʻl. Yoʻltanlamasdan yurish tavsiya etiladi, chunki yoʻlning baʼzi qismlari oʻtib boʻlmaydigan boʻlishi mumkin. Tashkillashtirilgan turni Toshkentdan ham buyurtma qilish mumkin.

Urungʻochga tashrif buyuring va Ugam-Chotqol Milliy bogʻining durdonasini oʻzingiz uchun kashf eting! Qanot Sharq sizga Oʻzbekistonda unutilmas sarguzashtlar tilaydi!

RUS

Как добраться до озера?

Добраться до Урунгача можно на автомобиле. Дорога занимает около 3-4 часов из Ташкента. Рекомендуется использовать внедорожник, так как некоторые участки дороги могут быть труднопроходимыми. Также можно заказать организованный тур из Ташкента.

Посетите Урунгач и откройте для себя жемчужину Угам-Чаткальского Национального парка! Qanot Sharq желает вам незабываемых приключений в Узбекистане!

ENG

How to get to the lake?

Lake Urungach is accessible by car. The journey from Tashkent takes about 3 to 4 hours. It is recommended to use a 4x4 vehicle, as certain sections of the road can be difficult to traverse. Alternatively, you can book an organized tour from Tashkent.

Visit Urungach and discover the hidden gem of the Ugam-Chatkal National Park! Qanot Sharq wishes you unforgettable adventures in Uzbekistan!



Havo kemasida o'zini tutish qoidalarini eslatib o'tamiz

RUS Напоминаем о правилах поведения на борту воздушного судна

ENG Reminder of Onboard Conduct Rules

Havo kemasi bortidagi xavfsizlik va qulaylik — barchamizning umumiy mas'uliyatimizdir. Parvoz tinch va xavfsiz o'tishi uchun belgilangan qoidalarga rioya qilish muhim. Quyida havo kemasi (HK) bortida qat'iyon taqiqlangan harakatlar sanab o'tilgan.

Безопасность и комфорт на борту воздушного судна — наша общая ответственность. Для того чтобы полет прошёл спокойно и без происшествий, важно соблюдать установленные правила. Ниже перечислены действия, строго запрещённые на борту воздушного судна (ВС).

Safety and comfort onboard the aircraft are our shared responsibility. To ensure a smooth and incident-free flight, it is important to follow the established rules. Below are actions strictly prohibited onboard the aircraft (AC).

UZB

Giyohvand moddalar va chekish

Bortda har qanday giyohvand moddalarni iste'mol qilish, shuningdek, tamaki mahsulotlarini, jumladan nosvoy, elektron sigaretalar va veyplarni chekish taqiqlanadi.

Alkogol

Bojxonasiz savdo do'konlari (duty-free) dan sotib olingan spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qat'iyon man etiladi.

RUS

Наркотики и курение

На борту запрещено употребление любых наркотических веществ, а также курение табачной продукции, включая насвай, и использование электронных сигарет и вейпов.

Алкоголь

Категорически запрещается распитие алкоголя, приобретённого в магазинах беспошлинной торговли (duty-free).

ENG

Drugs and Smoking

The use of any narcotic substances is prohibited onboard, as well as smoking tobacco products including naswar, and the use of electronic cigarettes and vapes.

Alcohol

Consumption of alcohol purchased in duty-free shops is strictly forbidden.



Uchuvchilar kabinasiga kirish

Yo'lovchilar uchun uchuvchilar kabinasiga kirishi taqiqlangan. Bu qoida xalqaro aviatsiya xavfsizligi talablariga asoslangan va unga rioya qilish majburiydir.

Ekipaj ishiga aralashish

Iltilmos, bortkuzatuvchilar va ekipajning boshqa a'zolari ishiga to'sqinlik qilmang, ularning harakatlariga aralashmang. Ekipaj bortdagi barchaning xavfsizligi va qulayligini ta'minlash uchun muhim xizmat vazifalarini bajaradi.

Доступ в кабину пилотов

Проход в кабину пилотов закрыт для пассажиров. Это правило основано на международных требованиях авиационной безопасности и обязательно для соблюдения.

Вмешательство в работу экипажа

Пожалуйста, не препятствуйте работе бортпроводников и других членов экипажа, не вмешивайтесь в их действия. Экипаж выполняет важные служебные обязанности, направленные на безопасность и комфорт всех на борту.

Access to the Cockpit

Passengers are not allowed to enter the cockpit. This rule is based on international aviation security requirements and must be strictly followed.

Interference with Crew Duties

Please do not obstruct flight attendants or other crew members and do not interfere with their actions. The crew performs important duties aimed at the safety and comfort of everyone onboard.

UZB

Elektronikadan foydalanish va tasvirga olish

Rullash, uchish va qo'nish paytida elektron qurilmalar va aloqa vositalaridan foydalanish taqiqlanadi. Shuningdek, ekipaj bilan kelishmasdan parvozning istalgan bosqichida suratga va videoga olish mumkin emas.

Havo kemasining mulki

Aviakompaniya mulkiga ehtiyotkotlik bilan munosabatda bo'lishingizni so'raymiz. Pledlar, yostiqlar, idish-tovoqlar, oshxona anjomlari, qutqaruv nimchalari, elektron qurilmalar, shuningdek, bosma mahsulotlarga zarar yetkazish va ularni bortdan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

Jamoat tartibiga rioya qilish

Iltimos, xulq-atvor me'yorlariga rioya qiling va boshqa yo'lovchilarning shaxsiy chegarasini hurmat qiling. Baland ovozda gapirish, asossiz shikoyatlar va tajovuzkorlik atrofdagilarga xalaqit beradi va bortdagi tartibni buzadi.

RUS

Использование электроники и съёмка

Во время руления, взлёта и посадки запрещено пользоваться электронными устройствами и средствами связи. Также нельзя производить фото- и видеосъёмку на любом этапе полёта без согласования с экипажем.

Имущество воздушного судна

Просим вас бережно относиться к имуществу авиакомпании. Запрещается повреждать или выносить с борта пледы, подушки, посуду, столовые приборы, спасательные жилеты, электронные устройства, а также полиграфическую продукцию.

Соблюдение общественного порядка

